

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 130 (1191), 2024-yil 2-iyul, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## O‘ZBEKISTON GLOBAL VA MINTAQAVIY AHAMIYATGA MOLIK TASHABBUSLARNI BMT BILAN HAMKORLIKDA AMALGA OSHIRADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish 30-iyun — 1-iyul kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi.



Tashrifning asosiy tadbirlari 1-iyul kuni bo‘lib o‘tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu kuni Ko‘ksaroy qarorgohida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Shabhat avvalida BMT Bosh kotibi davlatimiz rahbariga O‘zbekistonga kelish taklifi va ko‘rsatilayotgan samimiy qabul uchun chuqur minnatdorlik bildirdi.

Oliy martabali mehmonni samimiy qutlab, davlatimiz rahbari A.Guterrishning respublikamizga bu galgi, ikkinchi tashrifi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlar BMT tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotganligini tasdiqladi.

Muzokaralar chog‘ida global va mintaqaviy tinchlik, barqarorlik va ichkil taraqiyotni ta‘minlash, O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratil-

gan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish holati muhokama qilindi.

Hamkorlikning jadal sur‘ati va misli ko‘rilmagan yuqori darajasi katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

140 ta qo‘shma dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmog‘da. Keyingi yillarning o‘zida O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 10 ta maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Yil boshidan buyon BMT Bosh kotibining beshta o‘rinbosari O‘zbekistonga tashrif buyurdi. O‘tgan oyda mamlakatimiz Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (ECOSOC) tarkibiga va Xalqaro mehnat tashkilotining Ma‘muriy kengashiga saylandi. O‘zbekiston vakili birinchi marta BMT Inson huquqlari qo‘mitasi a‘zosi bo‘ldi. Toshkentda BMTning yana bir maxsus muassasasi — Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro jamg‘armaning vakolatxonasi ish boshladi.

Birgalikda global kun tartibiga oid yirik xalqaro tadbirlar, jumladan, oziq-ovqat xavf-

sizlik, turizmni rivojlantirish, kambag‘allik va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish hamda bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmog‘da. Kelgusi yilda Samarqandda UNESCOning 43-bosh konferensiyasi bo‘lib o‘tadi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik muammolar yuzasidan ham fikr almashildi. Davlatimiz rahbari Bosh kotibning xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash, BMT va uning asosiy organlarini isloh qilish hamda joriy yilda Nyu-York shahrida Kelajak sammitini o‘tkazish tashabbuslarini qat‘iy qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

Mintaqada transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish, oziq-ovqat, energetika va axborot xavfsizligini ta‘minlash sohasida hamkorlik masalalari ko‘rib chiqildi.

Afg‘onistonda yuzaga kelayotgan vaziyat muhokama qilinib, afg‘on xalqiga gumanitar yordamni kengaytirish, jahon hamjamiyatining bu mamlakatga nisbatan umumiy strategiyasini ishlab chiqish zarurligi ta‘kidlandi.

Uchrashuv yakunida 2026-2030-yillarda O‘zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha BMT bilan hamkorlikning hadli dasturini birgalikda ishlab chiqish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Shundan so‘ng Ko‘ksaroy qarorgohida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishga jahonda hamjihatlik va birdamlikni faol ilgari surish, tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, mamlakatimiz va BMT o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun O‘zbekistonning oliy davlat mukofotlaridan biri — “Oliy Darajali Do‘stlik” ordenini tantanali topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari mukofotni topshirar ekan, A.Guterrishning O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi hamkorlikning bugungi yuksak darajaga yetishiga qo‘shgan shaxsiy hissasini alohida e‘tirof etdi.

Bosh kotib O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan global va mintaqaviy ahamiyatga molik keng ko‘lamli islohotlar va tashabbuslarni, shuningdek, BMT institutlarining respublikamizdagi faoliyatini kengaytirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlayotgani ta‘kidlandi.

BMT rahbarining xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, global boshqaruv institutlarini isloh qilish, Barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari surish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, “yashil” va raqamli taraqqiyot, oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta‘minlash borasidagi ko‘p yillik sa‘y-harakatlarini qayd etildi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida Ko‘ksaroy qarorgohida daraxt ekish marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida keng ko‘lamli hamkorlikni yanada kengaytirish borasidagi qat‘iy intilishlar ifodasi sifatida Faxriy mehmonlar xiyobonida daraxt ekdilar.

Shu kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish Yuqori Chirchiq tumanidagi quvvati 200 megavatt bo‘lgan “ACWA POWER RIVERSIDE SOLAR” quyosh fotoelektr stansiyasi faoliyati bilan tanishdi.

Oliy martabali mehmonga 2030-yilgacha O‘zbekistonda yashil energetikani rivojlantirish strategiyasi, muqobil energiya

ishlab chiqarish sohasida quvvatlarini yaratish dasturi haqida taqdimot qilindi.

Jumladan, Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi tomonidan Toshkent viloyatida qiymati 400 million dollarlik, 200 megavatt quvvatiga ega bo‘lgan loyiha amalga oshirildi. Buning uchun 460 gektar yer maydoni ajratilgan. Hozirgi kunda 150 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarilmog‘da. Bundan tashqari, keyinchalik Parkent tumanida 500 megavatt elektr energiyasini saqlash tizimi ishga tushirildi.

Mazkur sa‘y-harakatlar natijasida 130 million kub metr tabiiy gaz tejalishiga erishilib, atmosferaga 180 ming tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinadi.

Asosiy maqsad aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan barqaror ta‘minlash, elektr energiyasi ishlab chiqarishda tabiiy gazdan foydalanishni kamaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirishdir.

BMT Bosh kotibi mamlakatimizda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish uchun ulkan salohiyat mavjudligini aytib o‘tdi. Bu borada amalga oshirilayotgan sa‘y-harakatlar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish sohasidagi maqsad va vazifalarga erishishga xizmat qilishi ta‘kidlandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish Oliy Majlis Senatida bo‘ldi.

O‘zbekistonning BMT va uning institutlari bilan ko‘p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish, global siyosat va mintaqaviy masalalar bugungi kunning muhim mavzularidandir.

Uchrashuvda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bilan bog‘liq, jumladan, gender tengligini ta‘minlash masalalari ham muhokama qilindi. So‘nggi yillarda gender tenglikka erishish, xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularga teng imkoniyatlar yaratish borasida O‘zbekistonda tizimli ishlar amalga oshirilayotgani, bunda BMTning tavsiyalari ham muhim o‘rin tutayotgani alohida ta‘kidlandi.

Xususan, parlamentlararo munosabatlar ko‘lami, gender tenglik, ayollarning ta‘lim olish huquqlari, global iqlim o‘zgarishlari sharoitida amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifalarga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish poytaxtimizning

Yakkasaroy tumanidagi Dilbuloq mahallasi-da ham bo‘ldi.

Mahalla milliy qadriyatlar maskani sanaladi. Ko‘plab xayrli ishlar, ezuq tashabbuslar mahallalarda, xalq bilan maslahatlashilgan holda amalga oshirildi.

Oliy martabali mehmonga keyingi yillarda bu tizim bosqichma-bosqich rivojlantirilib, endi mahalla mas‘ullari yanada keng imkoniyat va vakolatlarga ega bo‘lgani haqida so‘zlab berildi.

Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektorida iborat tizimga soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimi ham qo‘shilib, “mahalla yetiligi” joriy etilgani ta‘kidlandi. Ular o‘z hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligi va hamjihatligini ta‘minlash, ijtimoiy-huquqiy himoyaga muhtoj qatlamni qo‘llab-quvvatlash kabi masalalarni hal qilishda birgalikda faoliyat olib borishi qayd etildi.

Shu yerda mahalla ahli, nuroniyalar bilan muloqot bo‘ldi. Unda mahalla hayoti, bu yerdagi boshqaruv tizimi haqida so‘z bordi. Shuningdek, hududdagi kichik xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish obyektlari faoliyatini bilan tanishildi.

Dilbuloqda 6 ming 700 nafardan ziyod aholi yashaydi. Mahallada bog‘cha, oilaviy poliklinika, sport maktabi, savdo, sanoat va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari faoliyat yuritmoqda.

Mahalla idorasi yangi qurilgan. Ko‘p qavatli uylar yo‘lagi va ichki ko‘chalar ta‘mirlangan. Hududdan o‘tuvchi anhor bo‘yi tartibga keltirilib, obod sayilgohga aylantirilgan. Ishkomlar, mevali va manzarali daraxtlar, piyodalar yo‘laklari mahallaga ko‘rk bag‘ishlab turibdi.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish mahalla mamlakat taraqqiyotida muhim o‘rin tutuvchi noyob institut ekanini alohida ta‘kidladi. O‘zbekistonda aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash uchun bu tuzilma imkoniyatlaridan keng foydalanilayotganini yuqori baholadi.

Shu bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishning mamlakatimizga rasmiy tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
Ikrom AVVALBOYEV,  
O‘ZA muxbirlari

## ENERGIYA SAMARADORLIGINI TA‘MINLASH HOLATI KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-iyul kuni tarmoq va hududlarda energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari bo‘yicha hisobot bilan tanishdi.

Aholi o‘sib, korxonalar va muassasalar ko‘paygani sayin energiya resurslariga talab oshib borishi tabiiy. Mamlakatimizda shunga mutanosib energiya manbalarini va generatsiya quvvatlarini ko‘paytirish choralarini ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, bu quvvatlaridan oqilona foydalanish, energiyani tejash ham juda zarur.

Shu maqsadda iqtisodiyot tarmoqlaridagi eski texnologiyalar energiya tejankoriga almashtirilmog‘da. Sanoat korxonalarida “yashil energiya” manbalari joriy qilinmoqda. Binolarni qurishda issiqlikni saqlovchi materiallardan foydalanilmog‘da. Xonadonlar va ijtimoiy muassasalarda o‘rnatilgan quyosh panellari ularga qo‘shimcha quvvat bermoqda.

Joriy yil boshida hududlarda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar shakllantirilgan edi. U, ishlab chiqarishga xalal bermagan holda, energiya iste‘molini samarali tashkil etish orqali muayyan hajmlarni tejashga qaratilgan.

Yig‘ilishda bu boradagi ishlarining bajarilish holati ko‘rib chiqildi.

Energiya iste‘molida o‘g‘irliklar ko‘pligi ko‘rsatib o‘tildi. Masalan, bu yil 15 mingta holatda tabiiy gaz va 28 mingta holatda elektrdan o‘g‘irlik aniqlangan. Buning sababi — hozirgi tizimda noqonuniy ulanishlarning oldini olish emas, oqibati bilan kurashilyapti.

Shu bois, bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik, energiya sarfini qat‘iy nazorat qilish, mas‘ullarning javobgarligini oshirish zarurligi qayd etildi.

Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda sohada qator loyihalar amalga oshirilmog‘da, stansiyalar barpo etilmog‘da. Bu yil barcha manbalar hisobidan 4 gigavattlik elektr stansiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari sohadagi investitsiyaviy loyihalarni, chet ellik sheriklar bilan erishilgan kelishuvlarni yuqori darajada amalga oshirish kerakligini ta‘kidladi.

Shuningdek, yig‘ilishda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha ham axborot berildi.

Qayd etilganidek, 850 kilometr magistral tarmoq va 9 ta podstansiyani ta‘mirlash bo‘yicha ishlar boshlangan. Bunga qo‘shimcha 595 kilometr elektr tarmog‘i qurilib, qator yangi podstansiyalar ishga tushirildi. Issiqlik stansiyalari barqaror ishlashi uchun zarur yo‘qilg‘i, butlovchi va ehtiyot qismlar xazinalari shakllantirilmog‘da.

Mutasaddilarga energiya ishlab chiqarishni ko‘paytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilib, energiya yetkazib berish uzluksizligini ta‘minlash yuzasidan vazifalar qo‘yildi.

O‘ZA

## Yangicha yondashuvlar

## INNOVATSION O‘QUV-ISHLAB CHIQRARISH VA MUHANDISLIKDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH

### oliy ta‘limdagi ustuvor vazifa



Ta‘lim xuddi daraxtga o‘xshaydi, bog‘bon uni qancha mehr bilan parvarishlasa, shuncha ko‘p hosil beradi. Davlatimiz rahbarining ta‘limga islohotlarning hal qiluvchi kuchi sifatida qarashi yaqin kelajakda yurtimiz rivojlanishi, yangidan yangi ixtirolar yaratilishiga asos bo‘ladi, albatta. Ilgari sanoat dastgohlari, ehtiyot qismlari import qilingan bo‘lsa, endi muhandislik maktablarida tayyorlanayotgan mutaxassislar tomonidan ishlab chiqariladi.

Darvoqe, kechagi muhandis bilan bugungisi o‘rtasida katta farq bor. Kechagi muhandis import qilingan texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish bilan cheklangan bo‘lsa, hozirgilari bozor ehtiyojidan kelib chiqib, zamonaviy texnika va texnologiya yaratish imkoniyatiga ega. Shu nuqtayni nazardan bog‘lab avtomatlashgan, raqamlashgan, sun‘iy idrokli texnologiyalar yaratayotgan, sohaga ijodiy yondashayotgan ixtirochilar hamda yetuk muhandislarni ko‘paytirish juda-juda zarur.

Keyingi yillarda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish ko‘rsatkichi 28 foizdan 42 foizga yetdi. Mamlakatimizda muhandislik sohasi bo‘yicha

kadrlar tayyorlovchi 33 ta davlat oliygohining 106 ta‘lim yo‘nalishida 267 ming 119 talaba o‘qimoqda. Ularning 3240 nafari magistrlar. Muhandislik-texnik oliygohlarning 760 ta o‘quv laboratoriyasida 6764 ta jihoz mavjud. Qo‘shimcha 622 ta o‘quv laboratoriya uchun 5,5 mingdan ortiq zamonaviy jihozga ehtiyoj bor. Ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari zamonaviy

uskunalar bilan to‘liq jihozlanmagani hamda ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani sababli muhandislik sohasidagi oliygohlardagi ilmiy tadqiqotlar natijadorligi pastligiga qolmoqda.

Davomi 3-beta



## Taraqqiyot odimlari

## YANGI O'ZBEKISTONDA SAYLOV TIZIMI TRANSFORMATSIYASI:

## eng muhim siyosiy-huquqiy chizgilar

**Saylov — demokratiya ko'zgusi, deymiz. Bu jarayon orqali har bir fuqaro jamiyat va davlat ishlari boshqaruvida bevosita qatnashadi hamda mamlakat taqdiriga befarq emasligini namoyon etadi. Saylovlar xalqning davlat hokimiyati bilan aloqasini ko'rsatib turadi.**

Qolaversa, davlat boshqaruvida meritokratiya tamoyillarini tatbiq etish uchun ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Markaziy saylov komissiyasi raisi etib saylanishi mumkin emasligi belgilandi. Bundan tashqari, mamlakat hayotida siyosiy partiyalar rolini hamda fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish, shu jumladan, ularning davlat hokimiyatini shakllantirish jarayonida muayyan g'oya va maqsadlarni ko'zlab ishtirok etishini ta'minlash

nazarda tutuvchi qoidalar Saylov kodeksiga kiritildi. Jumladan, birinchidan:

a) saylov okruglari yetmish beshta hududiy bir mandatli hamda yagona saylov okrugiga bo'linadi. Bunda partiya ro'yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylovni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi. Qonunchilik palatasining 75 deputati amaldagidek majoritar tizim asosida bir mandatli saylov okruglaridan,

e) yagona saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozin olgan partiya belgilangan tartibda deputatlik o'rinlariga ega bo'lishi tasdiqlandi;

f) yagona saylov okrugi bo'yicha saylovchilar ovozi asosida deputatlik o'rinlarini partiyalar o'rtasida taqsimlashning aniq tartibi o'rnatildi. Bunda proporsional saylov tizimida yetti foizlik chegaradan o'tgan partiyalarga yoqlab berilgan umumiy ovozlar soni 75 ta deputatlik o'rniga bo'linadi va undan chiqqan raqam saylov koeffitsiyenti hisoblanadi. So'ng har bir partiya yoqlab berilgan ovozlar soni mana shu saylov koeffitsiyentiga bo'linadi. Undan chiqqan son esa har bir partiya yoqlab berilgan deputatlik o'rniga teng bo'ladi.

Ikkinchidan, Saylov kodeksiga saylov komissiyalarining vertikal tizimini nazarda tutuvchi qoidalar, xususan, "Markaziy saylov komissiyasi — hududiy saylov komissiyasi — tuman va shahar saylov komissiyasi — okrug saylov komissiyasi — uchastka saylov komissiyasi" tuzilmasi taklif etildi. Bunda:

a) viloyatlar va Toshkent shahri saylov komissiyalari o'rinda hududiy saylov komissiyalari tuzilishi nazarda tutildi;

b) saylov komissiyalarining professional ishlarini ta'minlash maqsadida hududiy saylov komissiyalarining uch nafargacha a'zosiining doimiy faoliyat yuritishi belgilandi;

d) saylov komissiyasi a'zolarining ijtimoiy kafolati kuchaytirildi. Xususan, saylov komissiyasining o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradigan a'zolari saylov davrida ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo'shatilishi yoki ular roziligisiz boshqa ishga o'tkazilishi mumkin emasligi belgilandi.

Uchinchidan, Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar saylovi natijalarini belgilash tartibi takomillashtirildi. Ilgarigi



qonunchilikda saylovda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko'pining ovozin olgan nomzod saylangan hisoblanar edi, ya'ni mutlaq ko'pchilik ovoz talab etilardi. Ushbu talab Prezident saylovlariga nisbatan to'g'ri qo'llangan bo'lib, bundan maqsad saylov huquqiga ega mamlakat aholisining mutlaq ko'pchiligi tanlagan shaxsgina Prezident lavozimiga munosib ko'rildi. Bunday amaliyot aksariyat xorijiy mamlakatlarda ham mavjud.

Shu bilan birga, bir nechta saylov okrugidan saylanadigan deputatlikka nomzodlarga nisbatan bu kabi qoidani qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud edi. Chunonchi, boshqalarga nisbatan ko'proq ovoz olgan deputatlikka nomzod saylanmas ekan, o'sha hududdagi nisbatan ko'pchilik fikri va xohish-istagi amalga oshmay qoladi. Shu sababli bir mandatli saylov okruglarida boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovoz olgan deputatlikka nomzod saylangan, deb hisoblanishi belgilandi. Ya'ni mutlaq ko'pchilik emas, balki nisbiy ko'pchilik ovozi bilan deputatlar saylanishi nazarda tutildi.

To'rtinchidan, siyosiy partiyalarning parlamentdagi rolini yanada oshirishga qaratilgan qoidalar kiritildi. Jumladan:

a) ma'lumki, partiya ro'yxati asosida saylangan deputatlar muayyan saylov okrugiga ega bo'lmaydi. Bunday deputatlar va saylovchilar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirish uchun asosiy mas'uliyat siyosiy partiyalar fraksiyasi zimmasida bo'ladi. Shunga muvofiq, qonunda partiya ro'yxati asosida saylangan deputatlar saylovchilar bilan aloqasi tegishincha siyosiy partiya fraksiyasi tomonidan belgilanishi mustahkamlandi;

b) taklif etilayotgan proporsional saylov tizimida siyosiy partiyalar saylovchilarning kamida 7 foiz ovozin olgan taqdirda ularga

deputatlik o'rinlari berilishi nazarda tutilgan. Shunga mos ravishda hamda ko'ppartiyaviylik tamoyiliga sodiq qolgan holda kam ovoz to'plagan partiyalarga ham imkoniyat berish maqsadida Qonunchilik palatasida fraksiya tuzishi mumkin bo'lgan deputatlar soni to'qqiz nafardan besh nafargacha tushirildi.

Beshinchidan, saylov komissiyalarining vakolatlari qayta ko'rib chiqildi. Xususan:

a) Konstitutsiyaga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi vakolatlariga qo'shimcha ravishda mahalliy kengashlar saylovini tashkil etish va o'tkazish masalasi kiritildi. Shuningdek, hududiy saylov komissiyalarini tuzish, yangi tashkil etilgan viloyat kengashiga saylov o'tkazish bo'yicha saylov okruglarini tuzish va boshqalar kiritildi;

b) ilgari saylov kodeksida tuman, shahar saylov komissiyasining vakolatlari sanab o'tilmagan edi. Shu sababli Saylov kodeksi yangi 20/1-moddaga bilan to'ldirilib, unda tuman, shahar saylov komissiyasi:

— xalq deputatlari tuman, shahar kengashi saylov okruglarini tuzish;

— xalq deputatlari tuman, shahar kengashi deputatligiga nomzodlarni hamda ularning ishonchli vakillarini ro'yxatga olish;

— tegishli saylov okruglari bo'yicha saylov natijalarini aniqlash;

— xalq deputatlari tuman, shahar kengashi deputatlariga guvohnoma va ko'krak nishonini berish hamda boshqa vakolatlariga ega ekani sanab o'tildi.

Umuman yangi saylov tizimi parlamentni shakllantirishning yangi zamonaviy tizimini yo'lga qo'yadi hamda ushbu jarayonda siyosiy partiyalarning ishtiroki va rolini, siyosiy jarayonlarga aholining keng ishtirokini oshiradi.



Jahongir SHIRINOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati

Shu bois, fuqarolarning mamlakat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida saylov qonunchiligini izchil takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratildi. Xalqimiz irodasi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham saylov tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator normalar o'z aksini topdi.

Ayniqsa, saylovlarni professional, ochiq va demokratik tarzda tashkil etish va o'tkazish uchun Markaziy saylov komissiyasining konstitutsiyaviy maqomi yanada mustahkamlandi. Xususan, saylov organlarining vertikal tizimini tashkil etish maqsadida Markaziy saylov komissiyasi zimmasiga nafaqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yoki parlamentga saylovni, balki xalq deputatlari kengashlariga saylovlarni ham tashkil etish va o'tkazish vazifasi yuklatildi.

**Bunday saylov tizimida partiyalar muhim o'rin tutadi. Ular aholi bilan munosabatlarning ta'sirchan va samarador bo'lishiga intiladi. Partiya o'z dasturi orqali xalqni ishonтира olsagina muayyan ovozga erishadi. Bu esa jamiyatimizda siyosiy plyuralizm bo'lishini ta'minlaydi.**

maqsadida aralash saylov tizimiga o'tish taklifi anchadan beri ilgari surib kelinmoqda.

Bunday saylov tizimida partiyalar muhim o'rin tutadi. Ular aholi bilan munosabatlarning ta'sirchan va samarador bo'lishiga intiladi. Partiya o'z dasturi orqali xalqni ishonтира olsagina muayyan ovozga erishadi. Bu esa jamiyatimizda siyosiy plyuralizm bo'lishini ta'minlaydi.

Shu bois, mamlakatimizda saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bilan, avvalo, saylovlarning majoritar va proporsional tizimini

qolgan 75 nafari esa partiya ro'yxati bo'yicha yangi taklif etilayotgan proporsional tizim asosida yagona saylov okrugidan saylanishi belgilandi;

b) gender tenglikni ta'minlash uchun partiya ro'yxatida ham xuddi majoritar tizimdagidek nomzodlarning kamida 40 foizi ayollar bo'lishi nazarda tutildi;

d) agar proporsional tizim asosida shakllantirilgan deputatlik o'rni bo'shab qolsa, tegishli partiya ro'yxatidagi keyingi navbatdagi mandatga ega bo'lmagan nomzodlar hisobidan to'ldirilishi belgilandi;

## Ekspertlar fikri

## O'ZBEKISTON XALQARO MAYDONDAGI JARAYONLARNING TOBORA NUFUZLI ISHTIROKCHISIGA AYLANIB BORMOQDA

## XORIJIY EKSPERTLAR BMT BOSH KOTIBINING O'ZBEKISTONGA RASMIY TASHRIFI VA TOSHKENTDA BO'LIB O'TGAN OLIY DARAJADAGI MUZOKARALAR HAQIDA

## 30-iyun – 1-iyul kunlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi.

Antoniu Guterrish O'zbekistonga tashrifi arafasida "Dunyo" axborot agentligiga bergan intervyusida BMT O'zbekiston bilan tinchlik va xavfsizlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha hamkorlikni kuchaytirishini ta'kidladi.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, O'zbekiston BMT tomonidan jahon hamjamiyatining dolzarb muammolarini hal etishning muhim yo'llarini izlash va ularga erishishning faol ishtirokchisi hamda tashabbuskori sifatida baholanadi.

## Xose Oyo RODRIGO, Ispaniya xalqaro texnologiya, ta'lim va gumanitar fanlar akademiyasi rahbari:

— Tashrif O'zbekiston tashqi siyosatida muhim voqeaga aylandi.

Bugungi kunda O'zbekiston BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari, jumladan, JST, XMT, UNESCO, FAO, Xalqaro migratsiya tashkiloti, Jahon banki, MAGATE faoliyatida faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston rahbarining tashabbuslari mintaqaviy va jahon miqyosida xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanayotganini alohida ta'kidlamochim. Xususan, O'zbekiston tomoni tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 10 ta maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Shuningdek, 140 ta qo'shma dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi O'zbekistonga xalqaro maydonda yuksak e'tirof va ishonch mavjudligidan dalolat beradi.

BMT Bosh kotibining tashrifi O'zbekistonning Tashkilot va uning institutlari bilan ko'p qirrali hamkorligini mustahkamlash hamda kengaytirishda muhim qadam bo'ldi. Tashrif chog'ida Antoniu Guterrish mamlakatning "O'zbekiston — 2030" strategiyasida inson huquqlari, gender tengligi, ayollar huquqlarini kengaytirish, "yashil" o'sish, korrupsiyaga qarshi kurashish va qonun ustuvorligi kabi muhim



yo'nalishlarni o'z ichiga olgan 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga sodiqligini yuqori baholadi.

Bundan tashqari, Antoniu Guterrishning O'zbekistondagi ishlari chiqarish va ijtimoiy soha obyektlariga tashrifi mamlakatimizning turli sohalardagi yutuqlarini namoyish etish, shuningdek, hamkorlikni yanada rivojlantirish va xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini muhokama qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, Antoniu Guterrishning tashrifi O'zbekiston va BMT o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda muhim bosqich bo'lib, oliy darajada o'tgan muzokaralar natijalari aniq samaralar beradi va mamlakatni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

## Roy Antoni ROJERS, Malaya universiteti qoshidagi Osiyo va Yevropa instituti direktori o'rinbosari:

— Tashrif, shubhasiz, davlatimizning ushbu Tashkilot bilan ko'p qirrali hamkorligini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan muhim voqeadir.

Darhaqiqat, keyingi yillarda O'zbekiston xalqaro platformalarda, jumladan, BMTda ham faollik ko'rsatib, global masalalarni hal etish, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.

Xususan, joriy yilda O'zbekiston BMTning muhim va nufuzli organi — 2025-2028-yillarga mo'ljallangan Inson huquqlari qo'mitasiga, 2025-2027-yillar uchun BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashiga (ECOSOC) va Xalqaro mehnat tashkiloti Ma'muriy kengashiga saylanganini qayd etish kerak.

Mazkur yutuqlar O'zbekiston yetakchisi rahnamoligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar xalqaro hamjamiyat va BMTga a'zo davlatlar tomonidan keng e'tirof etilganidan dalolatdir.



qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohangdir.

Ta'kidlash kerakki, BMT Bosh kotibining Toshkentga tashrifi O'zbekiston va mazkur tashkilot o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda muhim bosqich bo'lib, dolzarb muammolarni e'tibor qaratish va ularni birgalikda hal etish yo'llarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Aleksandra PERMINOVA, Rossiya Fanlar akademiyasi Xitoy va zamonaviy Osiyo instituti ilmiy xodimi:

— O'zbekiston BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning Markaziy Osiyoga safari davomidagi birinchi davlat bo'ldi. Avvalroq OAV ma'lum qilganidek, u shundan so'ng Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston va Turkmanistonga tashrif buyuradi.

O'zbekiston bugungi kunda Yevroosiyo'dagi eng faol rivojlanayotgan davlatlardan biri hamda xalqaro maydonda tobora nufuzli mavqeni egallab bormoqda. O'zbekiston Orolbo'yi mintaqasini tiklash, Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlash va Afg'oniston bilan muloqot bo'yicha faol tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Ta'kidlash joizki, Antoniu Guterrishning Markaziy Osiyoga tashrifi davomida muhim tadbirlardan biri 3-4-iyul kunlari Ostona

shahrida bo'lib o'tadigan SHHT sammitidir. Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti uchun SHHT bilan muloqotni mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki Antoniu Guterrishning ta'kidlashicha, "global notinchlik sharoitida aynan mintaqaviy tashkilotlar BMTning kuchi yetmaydigan muammolarni hal qilishga qodir".

O'zbekiston SHHT makonidagi muhim davlatlardan biridir. SHHT Mintaqaviy aksiterror tuzilmasining bosh qarorgohi Toshkent shahrida joylashgan. 2024-yil iyun oyi boshida esa O'zbekiston poytaxtida SHHT forumining XIX yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Afg'oniston muvaqqat hukumati bilan muloqotda erishilgan yutuqlar, uning Markaziy Osiyodagi muhim geografik o'imi, oziq-ovqat, energetika va suv xavfsizligini

Ishonchim komilki, oliy darajadagi muzokaralar va erishilgan kelishuvlar diplomatik aloqalarni mustahkamlash va hamkorlikda ishlash uchun yangi imkoniyatlar yaratishga, xalqaro hamjamiyat e'tiborini mintaqaviy masalalarga, xususan, Orol dengizi fojiasiga qaratishga, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash, inson huquqlarini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va boshqalarga xizmat qiladi.

O'ylaymanki, Antoniu Guterrishning tashrifi O'zbekistonning BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga sodiqligini tasdiqladi va Tashkilot ushbu maqsadlarni amalga oshirishda yordam berishga tayyorligini ta'kidladi. Zero, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida mamlakat o'z oldiga qo'ygan vazifalar BMTning Mingyillik sammitida

qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohangdir. Ta'kidlash kerakki, BMT Bosh kotibining Toshkentga tashrifi O'zbekiston va mazkur tashkilot o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda muhim bosqich bo'lib, dolzarb muammolarni e'tibor qaratish va ularni birgalikda hal etish yo'llarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.



## Igor SHESTAKOV, qirg'izistonlik siyosatshunos, "Oy Ordo" ekspert tashabbuslari markazi rahbari:

— BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo mamlakatlariga safari sayyora miqyosida bunday tashkilot uchun mintaqamiz chekka emas, balki strategik muhim va istiqbolli hudud sifatida qabul qilinayotganidan dalolatdir.

Antoniu Guterrish o'z safarini aynan O'zbekistonda, BMT faoliyati va jahon miqyosida muhim tashabbuslarni ilgari surishda eng faol ishtirok etayotgan davlatdan boshlagani e'tiborga molik.

Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi, kambag'allikka qarshi kurashish, "yashil" iqtisodiyot, yoshlar bilan ishlashga oid global masalalarni hal etish bo'yicha dolzarb takliflarni ilgari surmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston BMTning turli rezolyutsiyalarini ilgari surish va uning tarmoq dasturlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi davlatga aylandi, desak mublag'a bo'lmaydi.



ta'minlashda yangi yondashuvlarga tayyorligi O'zbekistonni SHHTning eng muhim ishtirokchisiga aylantirdi va xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Yangicha yondashuvlar

# INNOVATSION O'QUV-ISHLAB CHIQRARISH VA MUHANDISLIKDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH oliy ta'limdagi ustuvor vazifa



**Qo'ng'iro'tboy SHARIPOV,**  
oliy ta'lim,  
fan va innovatsiyalar vaziri,  
texnika fanlari doktori,  
professor

**Boshlanishi 1-betda**

2022-2023-o'quv yilida muhandis-texnik kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliyog'ohlarning 35 ming 270 bitiruvchisidan 14 ming 537 nafari mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashmagan. Sababi, ular malakaviy jihatdan investitsion qo'shimcha qiymat talablariga to'liq javob bera olmaydi. Boshqacha aytganda OTMlarda o'quv-laboratoriya ishlari, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, talabalar amaliyotini tashkil etishda yetarli sharoit yaratilmagan natijasida muhandislik sohasiga bilimli yoshlarning qiziqishi kamayib bormoqda.

2023-2024-o'quv yilida muhandislik sohasidagi 33 ta OTMda bakalavr kadrlar tayyorlash bo'yicha 34 ming 568 ta o'rindan 2789 tasi, magistrat tayyorlash bo'yicha 4577 ta o'rindan 3721 tasi vakant qolgan tashvishlanarli hol, albatta.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, yurtimizda iqtisodiyot tarmoqlari, sanoat va ishlab chiqarish taraqqiyoti uchun barcha sharoit mavjud bo'lgan hozirgi davrda ularning o'sishiga to'sinlik qilayotgan muhim omil — sifatli kadrlar, yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, o'z ishini ustasi bo'lgan muhandislar, texnik xodimlar, texnologlar yetishmayotganidir.

Hozir o'rta va yirik biznes vakillariga ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi quvvatli ishga tushirish uchun arzon ishchi kuchi emas, balki muayyan bilim va ko'nikmaga ega mutaxassislar zarur. Tor mutaxassislarni xorijdan jalb qilish amaliyoti ham anyan shu bois, bugun oddiy holatga aylangan.

Bu borada Prezidentimizning 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida ham muhandislik sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarini tashkiliy-boshqaruvi faoliyatini takomillashtirish, ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash bo'yicha vazifalar belgilangan.

Shunga muvofiq, vazirlikning tegishli buyrug'i bilan joriy yil 26-30-mart kunlari muhandis-texnik kadrlar tayyorlaydigan davlat OTMlar faoliyatini tahlil qilindi. Natijada mazkur oliy ta'lim muassasalariga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda potensial ish beruvchi hisoblangan jami mingga yaqin korxonalar va muassasa bilan hamkorlik o'rnatgani aniqlandi. Shu bilan birga, ularda 50 dan ortiq laboratoriya to'plami yaroqchi holga kelgan, 20 dan ortiq laboratoriya to'plami ma'nan eskirgan, yana shunchasidan foydalanilmayotgani ma'lum bo'ldi.

O'quv rejaga muvofiq, muhandis-texnik kadrlar tayyorlaydigan davlat OTMlar talabalar ta'lim jarayoni jadvalida belgilangan muddatda amaliyotga yuborilmoqda. Bu borada faoliyat yuritayotgan 2 mingdan ortiq korxonalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Biroq amaliyotga borgan talabalarning nazariy bilim bilan

zamonaviy ishlab chiqarish o'rnatidagi tafovut hamon saqlanib qolyapti. Bu ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

2023-2024-o'quv yilida bakalavriat va magistratura mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqilgan amaldagi me'yoriy-uslubiy hujjatlar tahlil qilinganda 749 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablaridan 115 tasi, 274 magistratura mutaxassisligi bo'yicha 38 ta malaka talabi o'quv rejalariga mos emasligi aniqlandi. Ayni paytda muhandislik-texnik sohasi ta'lim yo'nalishlarini 80 tadan 53 taga qisqartirib, 8 ta zamonaviy ta'lim yo'nalishini kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Mamlakatimizdagi OTMlarda muhandislik ta'lim yo'nalishlarida kadrlarga talab keskin o'zgardi. Ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda bitiruvchilarning kompetentligi, bilim va ko'nikmalari talab darajasida emas. Muhandislik oliyog'ohlarining iqtisodiyotning real sektori bilan o'zaro integratsiyasi samarali emasligi sababli yuqori malakali kadrlar tayyorlash o'z holiga tashlab qo'yilgan. Faoliyat yuritish zarurligini hamda yoshlar qiziqishi pastligi uchun sohaga iqtidorli yoshlarni jalb etish yil sayin murakkablashmoqda.

Globalashuv davrida xorijiy tillardagi adabiyotlar bilan tanishmasdan yaxshi mutaxassis bo'lib yetishish qiyin. Buning ustiga texnik atamalarining chet tillarda ekanini ham e'tiborga olish lozim. Universitetlarga jalb etilgan xorijlik professor-o'qituvchilardan bilim olish, texnik va ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, stajirovkalardan samarali foydalanish yoshlardan chet tillarni yanada chuqur egallashni talab etadi.

Bu, o'z navbatida, oliyog'ohlarimizning ilmiy-tadqiqot institutlari va tarmoq korxonalaridagi xorijiy nufuzli ma'lumot bazalariga integratsiya qilingan axborot-resurs markaz (kutubxona) laridan umumli foydalanishni zaruratini oshiradi.

Muhandislik ta'limi bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan OTMlarning ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorligini mustahkamlash ham dolzarb masalalardan. Bunda ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchi olimlarning universitetlarda dars berishi, OTM professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot bilan uzluksiz shug'ullanishi uchun sharoit yaratish va buni rag'batlantirib borish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida texnika yo'nalishidagi universitetlarning asosiy daromad manbai talabalarni o'qitishdan kelib tushadigan kontrakt puli bo'lib qolishi kerak emas.

Aksincha, universitetlar ilmiy tadqiqot natijalarini tijoriylashtirish, muayyan bilim va ko'nikmalar talab qiladigan xizmatlar ko'rsatish orqali pul topishi va u talabalardan keladigan daromaddan ko'proq bo'lishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalariga ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi bo'yicha huquqiy asoslar yaratish vaqti ham keldi, deb o'ylaymiz.

Muhandislik sohasidagi ilmiy izlanishlar sanoat korxonalaridagi muammolar yechimiga qaratilishi kerak. Buning uchun esa muammo va yechimlar bazasini shakllantirish talab etiladi. Pirovardida ta'lim klasterlari, kooperatsiyalarni kengaytirish, tajriba-ishlab chiqarish korxonalarini (spin-off) ochib, davlat va ishlab chiqaruvchi mablag'larini jalb qilish, tadqiqot o'tkazish, raqobatbardosh mahsulot yaratib, tijoriylashtirish kerak.

Keyingi yetti yilda aholi farovonligini oshirish, daromadli ish o'rnlari yaratish, mahalliy mahsulotlarni xomashyo emas, tayyor mahsulot sifatida xalqaro bozorlarga eksport qilish



maqsadida salmoqli investitsiya jalb etilib, yiliga qariyb 3 ming sanoat korxonasi ishga tushirilishiga erishildi. Natijada minglab ish o'rni yaratildi, aholi daromadi oshdi, yoshlarning ish izlab chet elga ketish holati sezilarli kamaydi.

Bunday industrial islohotlar natijasida taxminan 150 ming ish o'rni ochilib, klasterlar, kooperatsiyalar va qo'shma korxonalar soni hamda hajmi oshib, qo'shimcha qiymat yaratilmoqda.

**Ta'lim klasterlari, kooperatsiya-larni kengaytirish, tajriba-ishlab chiqarish korxonalarini (spin-of) ochib, davlat va ishlab chiqaruvchi mablag'larini jalb qilish, tadqiqot o'tkazish, raqobatbardosh mahsulot yaratib, tijoriylashtirish bugunning dolzarb masalasidir.**

O'tgan to'rt yilda 1727 ta amaliy, innovatsion, fundamental va startap loyihaga 2,2 trillion so'm yo'naltirilib, tadqiqot, tajriba-konstruktorlik xarajati 2 barobar ko'paydi.

Joriy yilda davlat investitsiya loyihalari doirasida ishlab chiqarishga 21 trillion so'm yo'naltirilib, 37,5 milliard dollarlik xorijiy va hududiy investitsiya loyihalari ishga tushirilishi belgilangan. Shu sababli oliy ta'lim muassasalariga nazariya va amaliyotni birga olib borish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi.

Ilgari oliy ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish o'zib-o'larçilikka tashlab qo'yilgan edi. Aytaylik, qabul jarayonida muayyan mutaxassislik

kerakmi-yo'qmi, degan savol bir chetda qolib, hech kim tahlil qilmasdan o'rta qo'lda qo'lda kvota belgilab berilardi.

Endi unday bo'lmaydi. Qabul jarayonini mahalliy hokimliklar, investorlar bilan kelishgan holda belgilab olish bo'yicha ishlar bajarilmoqda. Davlatimiz rahbarining ta'bir bilan aytganda, oliy o'quv yurtlari bilan sanoat o'rtasida uzulish mavjud. Oliy ta'limda bor kuch o'rtasidagi sifati oshirishga qaratilib, amaliyot bilan ishlab chiqarish integratsiyasiga e'tiborsiz qaralgan. Bu borada rektorlar zudlik bilan tegishli xulosa chiqarib, amaliy ishlarni kuchaytirish shart.

Bugun texnologik rivojlanishga davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaralib, qator hujjatlar qabul qilinishi barobarida tadqiqot, tajriba-konstruktorlik xarajati 2 barobar ortdi. Tahlillarga ko'ra, mablag'ning 41 foizi davlat ulushi bor korxonalariga, 34 foizi xususiy sektorga va 25 foizi oliyog'ohlarga to'g'ri kelgani OTMlarda muhandislik bo'yicha ishlar hali ham oqsayotganini ko'rsatadi.

Yo'nalishda yuzlab startap va innovatsion loyihalar amalga oshirilmay kelingan. Oliyog'oh bilan sanoat o'rtasida integratsiyani yo'lga qo'yib, rektorlar korxonalariga borib, yangi texnologiyalar bilan tanishib, samarali uskuna va dastgohlarni o'rganib, mustahkam aloqani yo'lga qo'yish vaqti yetdi.

Davlat oliyog'ohlarida muhandislik yo'nalishida 264 ming bakalavr, 3 ming magistr ta'lim olib, yiliga 67 ming talaba o'qishni bitirmoqda. Ammo ayni paytda ba'zi fanlar va mutaxassisliklar davlat talablariga mos emas. Vaholanki, ehtiyojga yarasha mutaxassislarni jahon talabari asosida tayyorlash bugunning ustuvor vazifasidir.

Talab va taklif to'g'ri muvofiqlashtirilgan joyda soha rivojlanadi, mutaxassislar o'z o'rnini topadi. Globalashuv sharoitida xalqaro talablar hisobga olinib tayyorlanmagan muhandislarining 60 foizi boshqa sohalarda ishlayotgani, ayni paytda mamlakatdagi jadal investitsiyaviy loyihalarni samarali boshqarish uchun 4 ming muhandisga talab borligi kelgusidagi ishlarni "tarmoq — korxonalar — oliyog'oh" zanjiri tamoyillari asosida yo'lga qo'yishni taqozo qiladi.

2023-2024-o'quv yilida yengil sanoat konstruksiyasi yo'nalishida 153 mutaxassis tayyorlangan Buxoro, Jizzax, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahridagi muhandislik oliyog'ohlari 2024-2025 o'quv yilida mahalliy hokimlik, investorlar bilan qo'shimcha qiymat masalalarini ko'rib chiqib, ko'proq kvota ajratishi bu boradagi ishlarimizning ilgari siljishiga asos bo'ladi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 20-iyunda "Inno" innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparkiga tashrif buyurib, muhandislik sohasidagi kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalarini faoliyatini yanada takomillashtirish masalalarini yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazgandi. Ta'kidlaganidek, bugun nafaqat kvotalarni ko'rib chiqish, balki o'zini oqlamayotgan kafedralarni innovatsion tarmoqlarga birlashtirish, keraksiz fanlarni qisqartirish va yangi fanlar kiritish, professor-o'qituvchilarning malakasini xorijda oshirish, yuklamalarni optimallashtirish va jahondagi eng so'nggi innovatsion o'quv

qo'llanmalarini tarjima qilib, fan sifatida keng joriy qilish zarur.

Ta'lim sifati oshirish ayni kunning ustuvor masalasi bo'lib, unga monand "klaster" tushunchasi samarali model sifatida kirib keldi. Bu uslub iqtisodiyot, sanoat hamda uining ta'limga tatbiq etilishini ta'minlash dasturiga aylandi.

Prezidentimiz joriy yil aprelda Yunusobod tumanidagi 5-maktabga tashrif buyurganida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi bo'yicha ta'lim tizimi islohotlari ijrosi bilan tanishib, o'quvchi o'rnlarni ko'paytirishga alohida e'tibor qaratdi. Zamonaviy muhandislik yutuqlaridan samarali foydalanish holda muassasa, binolar barpo etish, yangi o'quv o'rnlari yaratish bilan birga ta'lim



sifati oshirish, muhandislik maktablari qatorida umumta'lim muassasalarida ham farzandlarimizga kasb-hunar o'rgatish muhimligini ta'kidladi.

Yurtimiz oliy ta'lim tizimi jahonning eng nufuzli OTMlari bilan integratsiyalashib, akademik almashinuvlarga erishdi. Shu jarayonda o'plangan tajriba asosida "bog'cha — maktab — universitet" yaxlitligidagi innovatsion pedagogik klaster tashkil etilishi ayni muddao bo'ldi.

Muhandis mutaxassislar tayyorlash sanoat, ishlab chiqarish tarmoqlari, zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining birdan bir innovatsion yo'lidir. Prezidentimiz 2022-yildagi Murojaatnomasida "...Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni kengaytiramiz. Kimyo sanoati, elektr texnikasi, transport va energetika sohasida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan birga, alohida Muhandislik maktablari tashkil qilinadi. Bu tizim bizda hozirgacha bo'lmagan. Lo'nda aytganda, yangi zamon inenjenerlari tayyorlash tizimini yaratamiz", degan edi.

Mamlakatda iqtisodiy barqarorlikka erishish, sanoatni yanada rivojlantirish uchun bugun texnologiyalar, ayniqsa, muhandislik sohasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Yevropa davlatlari raqamli texnologiyalar sohasi, texnika jabhalari va turli nou-xaular orqali o'z istiqbolli dasturlari hamda nazariyalarni shakllantirish bilan birga to'plangan tajribani amaliyotga keng joriy qilmoqda. Natijada muhandislik sohasidagi jadal ilmiy takomillashtirish

kuzatilib, zamonaviy iqtisodiyotga tayyib, puxta rejalashtirilgan qarorlar qabul qilish uchun bu davlatlar yetarli motivatsiya va istiqbolli imkoniyatlarga ega bo'lmoqda.

Muhandislik maktablari uchun oliy ta'limni isloh qilish, kollejar bazasini aniqlash, ularga xorijlik mutaxassislarni jalb etish, maktablarning yo'nalish dasturlarini ishlab chiqarish hamda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish bugungi muhim vazifadir.

Ayni paytda ixtisoslashgan maktablar faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab olingan. Shuningdek, muhandislik maktablari o'quvchilarini xalqaro ta'lim dasturlari asosida o'qitish hamda zamonaviy o'quv darsliklari bilan ta'minlash jarayoni boshlangan.

Mazkur maktab o'quvchilari kamida 1 ta xorijiy tili bilishi bo'yicha milliy va xalqaro sertifikat olishi mumkinligi talab etilmoqda. Ulardagi yuqori sinf o'quvchilari bevosita korxonalarda amaliyot o'tashi uchun ixtisosligidan kelib chiqib, ilmiy-tadqiqot institutlari va oliyog'ohlar kafedralariga birlashtirilmoqda.

Umuman, ixtisoslashgan maktablar ta'lim, ilmiy va amaliyotni o'ziga qamrab olgan yagona klaster doirasida faoliyat yuritishi kerakligi hozir dolzarb va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugun 700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikum imkoniyatidan samarali foydalanish zarurligi belgilab berilgan. Har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy qilinmoqda. Xususan, kimyo sanoati, elektrotexnika, transport va energetika sohasida nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan birga alohida muhandislik maktablari tashkil etilyapti. Zamonaviy muhandislar tayyorlash maktablari kelajakda mamlakatimizda texnika va texnologiya sohasi jadal taraqqiyot etishini asoslaydi.

Rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar solsak, muhandislar jida qisqa muddatda yuqori sifatl mahsulotlar ishlab chiqarishga jalb etilib, insoniyat uchun kundalik zarur turli mashina va vositalarni yaratadi. Shu orqali eksport aylanmasini oshirishga hissa qo'shadi. Bu zamonaviy iqtisodiyotda ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishga turtki bo'ladi. Yuqori sifatl mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi oshgani sari bozor talab ham ko'payadi va mamlakat iqtisodiyotini yanada barqarorlashtiradi.

Muhandislik va texnologiya sohasidagi innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiyotning o'sishini ta'minlovchi katalizator bo'lib, aholi farovonligi, ayniqsa, ongini oshirish, qo'shimcha qiymat yaratishga ham xizmat qiladi.





## Dolzarb mavzu

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, bir yilda xonadonlarda 2 milliard tonnadan ortiq maishiy chiqindi hosil bo'ladi. O'zbekistonda ham ushbu ko'rsatkich kam emas, yiliga 10 million tonnadan ortiq.

Agar mamlakatimiz aholisi har yili 1,5 foiz oshib borayotganini hisobga olsak, bu ko'rsatkich 2030-yilga borib, 18 million tonnani tashkil etadi. Bu raqamlar faqat maishiy chiqindiga tegishli. Bugun 100 dan ortiq poligonda ikkilamchi xom-ashyo sifatida 3,5 milliard tonna sanoat chiqindisi ham saqlanmoqda.

# O'N MILLION TONNADAN ORTIQ

## IKKILAMCHI XOM-ASHYO

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda 20-30 foiz chiqindi qayta ishlanadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek, hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash sohasida izchil siyosat yuritilmoqda. Bu borada qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va izchillik bilan ijro etilmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2030-yilga borib, maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizga yetkazish belgilangan.

Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda hududlarda 209 ta maishiy chiqindi poligoni mavjud. Sanitar-epidemiologik va ekologik talablarga javob bermasligi va o'z resursini o'tab bo'lgani uchun ulardan 26 tasining faoliyati to'xtatilgan. Bundan tashqari, 2020-2023-yillarda 47 ta maishiy chiqindi poligoni rekultivatsiya qilinib, faoliyati to'xtatildi va mahalliy hokimliklar yer xaritasiga topshirildi. Ushbu poligonlardan atmosferaga yiliga 400 ming tonna issiqxonaga gaz va yer ostiga 43 ming tonna zararli sizot suv chiqarilgan. Achinarlisi, 300 dan ortiq sanoat va maishiy chiqindi poligoni 12 ming gektar yerni egallab kelmogda.

Oldin chiqindilarni boshqarish tizimi davlat budgetidan amalga oshiriladigan kommunal xizmat sifatida faoliyat yuritardi. Hozirda bu soha bozor mexanizmi o'tkazilgan.

Endi chiqindi poligonlarini tartibga keltirish va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha yangi tizim bo'ladi. Har bir viloyatda joylashuvi qulay bo'lgan 3-4 tadan poligon maxsus ekossanoat zonasiga aylantirilib, qayta ishlash loyihalari amalga oshiriladi. Qolganlarida chiqindini vaqtincha to'plab, qayta yuklaydigan stansiyalar ishga tushadi. Shuningdek, resursini o'tab bo'lgan poligonlar yopiladi. Ularning atrofida terak, tut, gujum, zarang ko'chatlari ekilib, "yashil belbog" barpo etiladi, — deydi Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi direktori maslahatchisi Rustam Tursunov.

Chiqindini olib ketish xizmati yaxshilanishida to'lov intizomi muhim ahamiyatga ega. Shu boisi, bu borada ham yangi tartib joriy qilinadi. Unga ko'ra, "mahalla yetiligi"ga ko'rsatilgan xizmat bo'yicha noreal qarzni hisobga olmaslik vakolatli beriladi. Bu orqali xizmat ko'rsatilmagan hudud uchun ham debitor qarzdorlik yozib qo'yishdek adolatsiz amaliyotga chek qo'yiladi.

Ko'p qavatli uylarda aholini chiqindini saralagan holda tashlashga rag'batlantiradigan tizim ishga tushiriladi. Buning uchun Ekologiya jamg'armasi hisobidan maxsus chiqindi qoplari

bepul beriladi, aholi chiqindini belgilangan toifaga ajratib, shoxobchaga olib boradi. Tadbirkorlar esa ulardan qayta ishlanadigan foydali chiqindini sotib oladi.

— Birinchi navbatda, chiqindini yaroqchi mahsulot emas, tabiiy resurs sifatida qarashga o'rganishimiz kerak, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bosh mutaxassisi Umarjon Abdullayev. — Masalan, plastik chiqindi. Bu yer ostidan qazib olingan neft mahsulotlari yoki gazni qayta ishlash natijasida hosil bo'ladi. Shuni inobatga olish kerakki, bu resurs cheklangan. Yoki shisha mahsulotlar ham xuddi shunday. Endi biz ularni chiqindi poligoniga yuborishni emas, saralash, qayta ishlash orqali ikkilamchi xomashyo ishlab chiqarishni o'ylashimiz kerak. Buning uchun, avvalo, saralab yig'ish tizimini amaliyotga joriy qilish lozim bo'ladi. Tajribadan ko'ramizki, turli chiqindilarni saralab olish uchun ba'zi davlatlarda o'ndan ortiq, ba'zilarida beshadan ortiq quti joylashtiriladi. Endi bu amaliyot bizda ham joriy etiladi.

Prezidentimizning shu yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan qattiq maishiy chiqindilarni saralash tizimi bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqich — 2024-2026-yillarda Toshkent, Angren, Andijon, Buxoro va Termiz shaharlari hamda Toshkent tumanidagi ko'p qavatli uylar joylashgan hududlarda chiqindilarni chiqindi yig'ish maydonchalarida "qayta ishlanadigan", "qayta ishlanmaydigan" va "oziq-ovqat" toifalariga ajratgan holda yig'ish tashkil etiladi.

Nima uchun bu ishlar bosqichma-bosqich qilinadi, nega birdaniga emas? Buning uchun, birinchi navbatda, chiqindilarni saralash uchun talab qilinadigan konteyner yoki maxsus qoplar, shunga moslangan transport vositalari, logistika tizimini tayyorlash kerak. Bu esa muayyan vaqt talab qiladi. Hozir bu borada ishlar boshlangan. Jumladan, joylarda rangli plastik qoplar ishlab chiqarish va joylashtirish choralarini ko'rilmogda.

Yana bir muhim jihat — odamlarning ongi, dunyoqarashini o'zgartirish. Uyida hosil bo'lgan chiqindini aralash holda tashlash qanday oqibatlarga olib keladi-yu, saralab olib chiqish kelajak avlod, farzandlarimiz uchun qanchalik ahamiyatli ekanini yetkazish zarur.

Farmon bilan joriy yil 1-iyulga qadar tegishli sanitar tozalash korxonalarini tomonidan fuqarolar chiqindilarni toifalarga ajratgan holda



to'plash uchun QR-kodli maxsus chiqindi paketlari bilan bepul ta'minlanadi.

Mazkur hujjatning yana bir e'tibori jihat, chiqindi xizmatlari uchun oylik to'lovdan qarzdorligi bo'lgan abonentlar SMS orqali xabardor qilib boriladi. Agar qarzdorlik vaziyatga kelgani to'g'risida oldindan elektron to'lov tizimlari orqali ogohlantirildigandan keyin ham to'lov qilinmaganda taqdirida abonentlar mazkur qarzdorlikni bartaraf etmaguncha elektr energiyasi uchun to'lovlarni qabul qilishni vaqtinchalik cheklash amaliyoti bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi. Ya'ni birinchi bosqichda Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlarida shu yil 1-iyundan boshlab chiqindi xizmatlari bo'yicha 6 oy davomida shakllangan qarzdorlik uchun, ikkinchi bosqichda barcha hududlarda 1-noyabrdan boshlab chiqindi xizmatlari bo'yicha 3 oy davomida shakllangan qarzdorlik uchun, uchinchi bosqichda 2025-yil 1-yanvardan boshlab chiqindi xizmatlari bo'yicha 1 oylik qarzdorlik uchun joriy etiladi.

Mamlakatimizda chiqindini qayta ishlash ko'rsatkichi yildan yilga o'sib bormogda. Bugun maishiy qattiq chiqindini qayta ishlovchi 313 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu chiqindilarni qayta ishlash uchun yetarli, ular qaysi turdagi chiqindilarni qayta ishlamoqda?

— Mazkur korxonalar ayni paytda asosan, plastik, qog'oz va rangli metallni qayta ishlayapti, — deydi U.Abdullayev. — Bundan tashqari, teri, shisha va bosqich turdagi mahsulotlarni qisman qayta ishlovchi korxonalar ham mavjud. Shunga qaramay,

80-90 foizi chiqindi poligonlariga olib chiqib tashlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, atrof-muhitga juda katta zarar keltiradi. Vaholanki, bugun barcha turdagi chiqindini qayta ishlash, undan ikkilamchi mahsulot yoki muqobil energiya olish imkoniyati bor.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda yiliga 125 million tonna sanoat chiqindisi hosil bo'ladi. Bu maishiy chiqindidan 12,5 barobar ko'p. Bu turdagi chiqindilar hozirgi paytda 75 ta poligonda saqlanmoqda. Ularda ayni paytda 3,3 milliard tonna chiqindi bor. Yuqorida aytganimizdek, bu chiqindining ayrim turlariga, ya'ni ikki million tonnaga yaqini qayta ishlanmoqda.

Qayta ishlashni kengaytirish maqsadida qabul qilingan 2019-2028-yillarda O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi ikki bosqichda amalga oshirilmoqda.

Birinchi bosqichda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlar sohasidagi qonunchilik takomillashtirish, qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning samarali tashkil etilishini ta'minlash maqsadida sanitariya jihatidan tozalashning moddiy-texnik bazasi va infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi ishlar amalga oshiriladi. Xususan, to'lov intizomini mustahkamlash, qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida ekologik ta'lim tizimini rivojlantirish uchun metodik va axborot ta'minoti yaratildi.

Ikkinchi bosqichda qattiq maishiy chiqindilarni saralab yig'ish bo'yicha

## Tashabbus

**Qalovini topsang, qor ham yonadi, degan gap bor. Albatta, bu naql bejiz aytilmagan. Boisi, kishi agar o'zi xohlab biror ishini astoydil bajarishga kirishdimi, uning uddasidan chiqishi aniq. Lekin bunda hammaning ham omadi chopavermaydi. Faqatgina harakatchan, yo'nalishini yaxshi biladigan odamgina boshlagan ishini eplab ketishi mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan odam uchun barcha imkoniyatlar eshigi keng ochilgan.**

Deyarli har kuni ishdan qaytishda do'konga kirib, nimadir xarid qilamiz. Xarid qilgan mahsulotlarimizni kamida ikkita yelim xaltaga solib berishadi. Unga har kuni olib borilayotgan yelim xaltalar bundan kun ortib boraveradi. Bundan tashqari, birgina xonadondan qanchalab chiqindi chiqiriladi.

— Yigirma yildan beri chorvachilik bilan shug'ullanaman, — deydi nishonlik Zarif aka. — Qo'yilarimizni erta bahordan dala-dashiga chiqarib, boqishni boshlaymiz. Chorva orasida oldinlari uchramagan kasalliklar ko'payib qoldi. Yaxshi yem-xashak yeb yurgan qo'y-qo'zi to'stadan harakatdan to'xtaydi. Qancha

parvarish qilsangiz ham biror narsa yemay qo'yadi. Veterinar ham davosini topolmay sarson bo'ladi. Majburiylikdan qo'yni so'yganimizdan keyin sababi aniqlanadi. Ko'pincha uning oshqozoniga yelim xalta tiqilib qolgan bo'ladi. Bunday holat keyingi yillarda ko'p takrorlanmoqda. Buning sababini o'rganishga harakat qildim. Qishloqlarda erta bahorda har yili Navro'z sayli keng dalalarda tashkil etiladi. Sayli o'tgan kunning erasi kuni u joyga qarasangiz chiqindini uyumini ko'rarsiz. Turli yelim xaltalarni shamol har tomonga uchirib yuradi. Shunday paytda qo'y-qo'zilar, qora mollar dashtda o'tlab yurgan bo'ladi. Xashakka qo'shib yutib yuboradi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, tabiatga ziyon yetkazayotgan maishiy chiqindi orasida polietilen paketlar ulushi katta. Har yili 100 mingdan ortiq qush polietilenni yeyishi yoki paketga tiqilib qolishi oqibatida nobud bo'ladi. Bunday paketlar parchalanishi uchun

100-500 yil vaqt kerak. Uni yoqish ham xavfli. Bu havo ifloslanishiga, ozon qatlami yemirilishiga sabab bo'ladi. Shu boisi, 40 dan ziyod mamlakatda polietilen paketlardan foydalanishda taqiq va cheklolvar joriy qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda har bir insonga yiliga o'rta 20 tonna xomashyo

sarflanib, uning 97 foizi chiqindiga chiqariladi. Bu mahsulotlarning xizmat muddati qisqarayotgani, uning o'zidan o'ramiga ko'proq e'tibor qaratilayotgani, bir martalik buyumlardan keng foydalanilayotgani bilan bog'liq. Chiqindini saralash va qayta ishlash, uning tabiatga, insoniyatga ziyonini kamaytirish XXI asming eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Yurtimizda ham chiqindining tabiatga ziyonini kamaytirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda bu borada tizimli ishlar qilinayapti. Xususan, bu yo'nalishda hududlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga shart-sharoitlar yaratilayapti.

Jumladan, yaqinda qamashilik ishbiarmon tashabbusi bilan tumanida chiqindini qayta ishlash korxonasi ish boshladi. Hozir tumaning deyarli to'qson foiz mahallalarida chiqindini olib ketish xizmati joriy etilgan. Yangi loyiha nafaqat maishiy chiqindilarni zararsizlantirishga, balki aholi bandligini ta'minlashga ham xizmat qilmoqda.

— Bir necha yildan beri tumanimizda bu muammoni bartaraf etish choralarini qayta boshqarilayotgani, — deydi qamashilik Nurbek Rasulov. — Tadbirkorim aynan shu yo'nalishda faoliyat boshlagani barchamiz uchun quvonarli. Hozirga qadar aholi xonadonlaridan chiqarilayotgan chiqindilar ochiq tabiatga tashlanardi. Endi bunga barham beriladigan bo'ladi. Toza hududda yashashning zavqi baribir boshqacha. Bundan barchamiz mamnunmiz.

"Qamay-Qorasuv-Ekos" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli korxonalar bugun nafaqat Qamashida, balki yon-atrofdagi tumanlarga ham xizmat ko'rsatmoqda. Umumiy qiymati 5,5 milliard so'm bo'lgan loyiha ishga tushirilganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, daromad topishni boshlab yubordi. Hozir korxonada 22 kishi doimiy ish o'rnatilgan bo'lib, kuniga 2,2 tonna yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarilmoqda.

— Anchadan beri shu ishni boshlashni rejalashtirib yurgandik, — deydi "Qamay-Qorasuv-Ekos" MCHJ rahbari Shermamat Ismatilayev. — Ishbiarmon doira vakillariga

keng yo'l ochilishi bizga ham katta dalda bo'ladi. Tezda harakatni boshlab, ishga kirishdik. Bu borada tajriba to'pladik. Malaka oshirdik. Hamkorlar bilan gaplashib, Xitoydan 220 ming dollarlik uskunalar olib keldik. Ushbu jihozlar orqali chiqindi polietilenni, plastmassa va qoplardan yarim tayyor mahsulotlar, granula tayyorlanmoqda.

Tashabbuskor Shermamat aka bergina va ish bilan to'xtab qolmoqchi emas. Tabiiy shaydosi bo'lgani bois, eng avvalo, qo'shimcha ish sifatida majmua yaqinida yashil makon tashkil etishga kirishdi. Natijada korxonalar hududida 2,5 gektar maydonda bog' yaratildi. Unda 2 mingga yaqin mevali daraxt ekilib, tomchilatib va yomg'irli to'qunib sug'orish texnologiyasi o'rnatildi. Tadbirkor kelgusida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqchi. Bu esa tabiatga zarari berayotgan chiqindilar yanada kamayishiga zamin yaratadi.

**Abkar RAHMONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

**Lutfulla SUVONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## TADBIRKOR CHIQUINDIDAN DAROMAD OLISHNI BOSHILADI



## Faxr



Shahlo HOSHIMOVA,  
Jizzax politexnika instituti assistenti,  
"Kelajak bunyodkori" medali sohibisi

Hayot kutilmagan voqealarga boy, orzuga qachon va qay tariqa yetishish, sizga atalgani qanday kelishini bilmas ekansiz. Bolaligidan she'r yozib, 14 yoshimdan buyon Zulfiya nomidagi davlat mukofotini olishni orzu qilardim. 30 yoshimda esa kutilmaganda "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandim. Jizzax viloyatidagi iqtidorli, izlanuvchan, salohiyatli yoshlar qatori tavsiya qilinganim bois, avvaliga men ham, ota-onam ham bunga ishonmadik. Ammo keyin otam "Agar Prezidentimiz bilan ko'rishsang, dadam sizni yaxshi ko'radi, yuritayotgan siyosatimiz uchun rahmat aytib qo'y", deya tayinladi.

## YURTIMIZDAGI HAR BIR YOSH KELAJAK BUNYODKORI

Medalni shaxsan davlatimiz rahbari qo'lidan qabul qilib olar ekanman, otamning so'zlarini yetkazdim. Qisqa muddatli suhbatim davomida davlatimiz rahbari biz, yoshlarni hamisha qo'llab-quvvatlashi, yonimizda turishini aytdi. Bu samimiy so'zlar mamlakatimizning har bir yigit-qiziga qaratilganini chuqur his qildim.

Prezidentimizning shu yil 30-iyun kuni O'zbekiston yoshlariga yo'llagan bayram tabrigida ham bu alohida aks etgani bejiz emas. "Biz o'z oldimizga qo'rgan ulkan maqsadlarimiz ijobatini, Yangi O'zbekiston kelajagini butun el-yurtimiz zatori sizdek azmu shijoatli farzandlarimiz bilan bog'liq holda ko'ramiz", dedi davlatimiz rahbari.

Yoshlar niholga o'xshaydi. To'g'ri parvarishlab, unib-o'sishi uchun sharoit yaratib berilsa, ulkan daraxtga aylanadi. Mevasi, soyasidan butun xalq bahramand bo'ladi. O'zbekiston ana shunday oyoqda mustahkam tura oladigan, o'z so'zi va maqsadiga ega, har tomonlama barkamol avlod, yetuk yoshlarni tarbiyalash yo'li-da jadal borayotgan davlatlardan. Buning uchun barcha sohada yaratilayotgan imkoniyat, sharoitlar samara berib boshladi. Ilmiy yoshlar safi kengayib, tengdoshlarimiz jahonning eng nufuzli oliyohlarida tahsil olaypti. Mashhur kompaniyalarda ishlaypti. Yigit-qizlar ilmi, salohiyati bilan yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shmoqda.

Oddiy oilaning yolg'iz farzandiman. Otam haydovchi. Shuning ortidan oila tebratgan. Shunga qaramay, asosiy sarmoyani bilim olishimga tikkan. Hamisha meni qo'llab-quvvatlaydi. Besh yil oliy o'quv yurtiga kirolmaganimda ham hech qachon chekinmasligim, ilmdan ortga qaytmasligim kerakligini aytib, menga rag'bat berib turgan.

Mana, uning ishonchi va tirgagi bilan magistraturani ham tamomlab, ayni paytda Toshkent davlat agrar universiteti doktorantura bosqichida tahsil olayptan. Turkiyaning mashhur universitetlaridan biridan doktoranturada o'qish taklifi olgandim, ammo otamni yolg'iz qoldirishga ko'zim qiymadi. Ta'limni yurtimizda davom ettirayotganimdan mamnunman. Chunki bu yerda sevimli ishim bor. Ikki yildan buyon Jizzax politexnika institutida ishlab, 200 dan ortiq talabaga dars berib kelyapman.

Qator loyihalarim bor, ularni o'z laboratoriyamda ilmiy o'rganib, amaliyotda sinovdan o'tkazaman. Asosiy yo'nalishim qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga qaratilgan.

Bolaligidan doim jurnalist bo'lishni orzu qilganman. She'r, hikoyalar yozib yurganim uchun shu kasbga havasim baland edi. Hozirgacha bir necha to'plamim nashrdan chiqqan. Ammo taqdir qilgani ilm yo'li ekan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi tezda qiziqirib qo'ydiki kelajagimni shunda ko'ra boshladim. Mahsulot yetishtirish, saqlash, qayta ishlash jarayoni qiziq edi. Bu borada yangi ilmiy izlanish, loyihalarga qo'l ura boshladim. 2021-yilda 6 ta ana shunday

innovatsion loyiham moliyalashtirildi. Ularning asosi oziq-ovqat mahsulotlarini chiqitga chiqarmasdan, qayta ishlab, iqtisodiyotimizni rivojlantirishga qaratilgan.

Chunki mahsulot yetishtirish bir karra daromad bo'lsa, uni qayta ishlash bir necha barobar foyda, degani. Buning uchun zamonaviy texnologiyalar, ilmiy asoslangan loyihalar zarur. Masalan, Jizzax viloyatida ko'p qovun yetishtiriladi, lekin iste'mol bozori juda katta emas. Agar ana shu mahsulotni qayta ishlashni yo'lga qo'ysak, samaradorlik oshadi. Doktorlik ishim aynan shu yo'nalishga qaratilgan. Mahsulotning ikkilamchi hosili — dalalarda qolib ketadigan, texnik hamda biologik shikastlangan qovunni olib, undan marmelad tayyorlash texnologiyasini yo'lga qo'yish ustida ishlayapman.

Tajriba davomida uy sharoitida quritilgan qovun mahsuloti namunalari Turkiyadagi Egey universiteti professor-o'qituvchilariga yubordim. Tahlil natijalari olingach, xalqaro jumalda e'lon qilib, keyin yurtimiz amaliyotida qo'llashni maqsad qilganmiz. Boshqa meva-sabzavotlarni qayta ishlash bo'yicha ham shunday loyihalar qilmochimiz. Viloyatimizda buning uchun imkoniyat yetarli va kelgusida hududni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalar manziliga aylantirishni maqsad qilganmiz.

Joriy yil aprelda Egey universitetida amaliyot o'tab qaytdim. Niyatim u yerdagi kabi eng yangi texnologiyalarni yurtimizga olib kelib, institut talabalariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda zamonaviy yondashuvlarni o'rgatishdan iborat. Chunki bugungi yigit-qizlarda ilm olishga ishtiyoq ham, imkoniyat ham yuqori. O'zim ham ana shu imkoniyatlardan foydalanayotgan yoshlardanman. Til o'rganishga qiziqaman, bir necha xorijiy til bo'yicha sertifikatim bor. Ilmiy faoliyatdan tashqari, sport bilan shug'ullanaman, taekvondoning ITF turi bo'yicha 18 karra O'zbekiston chempioni, xalqaro turnir g'olibi, birinchi darajali qora belbog' sohibasiman. Ilmiy loyihalarim bilan turli tanlovlarda ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritib kelyapman. Jizzax itifoxi — "Oltin fond" a'zosiman.

Umuman, inson maqsadni to'g'ri qo'yishi kerak. Yonida uni qo'llab-quvvatlaydiganlar bo'lishi ham muhim. Ayniqsa, xotin-qizlarning ilm olishiga keng yo'l ochayotgan jamiyatda natija ham shunga yarasha bo'ladi. Men bugun ana shunday ilg'or jamiyat a'zosi ekanimdan xursandman. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgan mamlakat farzandi ekanimdan g'ururni tuyaman.

Bugun yurtimizdagi har bir yosh, jamiyatga nafi tegayotgan yigit-qizni kelajak bunyodkori, deb bilaman. Ular dehqon yoki haydovchi, shifokor yoki olim bo'lishidan qat'i nazar, kelajak bunyodkorlaridir. Chunki ular bekorchi emas, o'z mehnati, intilishi bilan hech bo'lmasa, bir oilani ta'minlashga hissa qo'shaypti. Ular jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga befarq emas.

## Nuqtayi nazar

Ayni paytda milliy birlik, inson qadri, ilm olish g'oyasi diqqat markazimizda bo'lishi zarurligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Davlatimiz rahbari ilgari surgan qarashlar zamirida globallashuv sharoitida vatandoshlarimizni milliy o'zlik va manfaatlar atrofida birlashtirish masalasi yotadi. Xususan, yoshlar tarbiyasi, ularni globallashuv jarayonining salbiy oqibatlaridan himoya qilish har bir mamlakatning ichki siyosatidagi dolzarb masalalardan.



## GLOBALLASHUV uning kuchidan o'ziga qarshi foydalanish imkoniyatini qo'ldan boy bermaylik



Samariddin QORAYEV,  
pedagogika fanlari doktori

Taraqqiyotning bugungi bosqichiga kelib, jamiyat rivojlanishining kompleks xarakterda sodir bo'lishi, ijobiy jihatlari bilan birga salbiy oqibatlari ham yuzaga chiqayotgani insoniyat oldiga yangidan yangi muammolarni qo'yimoqda. Bugun o'zaro ta'sirlardan to'la himoyalangan biror-bir mintaqa yoki davlatni topish mumkin emas. Bu globallashuv va integratsiya jarayoni bilan bevosita bog'liq.

Bu jarayon mamlakatlarimiz iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ma'naviy, diniy sohalaridagi salohiyatiga bog'liq ravishda turlicha kechadi. Taraqqiy etgan davlatlarda nisbatan faol hodisa sifatida kuzatilishi uning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa ekanini ko'rsatadi. Hozir shiddatli kechayotgan globallashuv jarayonining mamlakatlarga salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy jihati oshirish uchun bu hodisaning mohiyatini chuqur anglash, xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish lozim. Globallashuvning mohiyati va xususiyatlarini tadqiq etish unga moslashish, yo'nalishlarini kerakli tarzda o'zgartirish, uning kuchidan o'ziga qarshi foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Globallashuv jarayonining bugungi bosqichida vatan va vatanparvarlik, millat va millatparvarlik tushunchalari har doimgidan-da muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har bir jamiyat oldida o'zlikni saqlash, yet ta'sirlardan himoyalash, mafkuraviy va g'oyaviy xurujlar ta'siridan ihtolanish bilan bog'liq yangi muammolar paydo bo'ladi. Bunday sharoitda yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish, yet mafkuralar ta'siriga tushib qolishdan asrash eng dolzarb masalalardan. Bu mamlakatimiz sharoitida qator vazifalarning amaliy ijrosida ko'zga tashlanadi. Jumladan, yoshlarni milliy g'oya va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, qalbi va ongiga vatan himoyasi sharaffi hamda muqaddas burch ekanini chuqur singdirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Qadim tariximiz va madaniyatimiz, jonajon vatanimiz mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan

milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga ishonchni kuchaytirish kun tartibiga chiqdi.

Yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashuv ko'nikmalari, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitet shakllantirilmoqda. Har qanday murakkab vaziyatda tezkor va mustaqil qaror qabul qiladigan, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlar tarbiyalanaypti. O'zbekiston manfaatlarini hayotning barcha jabhasida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bugunning talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borilaypti.

Globallashuv sharoitida hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan xurujlar zamirida chuqur o'ylangan strategiya va maqsadlar mavjud. Ular ortida turgan "aqli insonlar" o'z g'oyalari asrlar davomida yashab kelayotgan o'zga millatlar qadriyatlarini va mafkurasi bilan raqobatlasha olishi, odamlarni ortidan ergashtirishi uchun har qanday

Hayotimizga kirib kelayotgan hodisalarning qamrovi ham, yo'nalishi va maqsadlari ham, shakli va vositalari ham xilma-xil. Ularni dabdurustdan anglash, tushunish va tahlil qilish juda mushkul. Hodisalarni qabul qilish yoki "o'tkazib yuborish" uchun insondan o'ziga yarasha iqtisodiy, diniy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, ma'rifiy madaniyat va dunyoqarash talab qilinadi. Ayniqsa, yoshlarning bu boradagi dunyoqarashi va bilimi shakllanish jarayonida ekanini inobatga olsak, faol faoliyatida bu jarayon bilan bog'liq xatoliklar bo'lishi tabiiy ekanini namoyon bo'ladi.

Globallashuv shunday jarayonki, unga passiv munosabatda bo'lgan jamiyat har doim yutqazadi. Bu jarayonda kuzatuvchi yoki kirib kelayotgan yot g'oya va ta'sirlardan himoyalannuvchi maqomida qolish mumkin emas. Balki jamiyatimizga har xil yo'l va vositalar orqali kirib kelayotgan yot, hatto vayronkor g'oyalarga qarshi milliy g'oyamiz, mafkuramiz, qadriyat va an'analarimiz, boy madaniy merosimiz, turmush tarzimimizni dunyo hamjamiyatiga targ'ib qilish bilan javob berishimiz zarur.

Zero, O'zbekistondan yetishib chiqqan buyuk allomalarning ilm-fan, din, san'at va harbiy



usul va vositalardan foydalanadi. Bunday yot g'oyalar ortidagi g'arazli maqsadlarni anglash oson emas. Buning uchun odamlarda, xususan, yoshlarda siyosiy ong, mafkuraviy immunitet, milliy qadriyat va an'analariga hurmat, milliy tarbiya va yuksak darajadagi axloqiy sifatlar shakllangan bo'lmog'i lozim.

Mutaxassislar jahonda mafkuraviy xurujlarning turfa shakllarini bir-biridan farqlashga harakat qiladi. Bu kabi xurujlar ortida millatlarni o'z milliy mafkurasi va axloqiy idealaridan mahrum qilish orqali g'oyaviy manquraga aylantirish bilan bog'liq maqsadlar mavjud.

sohalaridagi yutuqlari asrlar davomida butun dunyo ma'naviyatiga katta ta'sir o'tkazgan. Jamiyatimiz azaldan dunyo ma'naviyati va ma'rifiy, mafkuraviy va g'oyaviy yangilanishlarining iste'molchisiga emas, balki bu jarayonlarning peshqadami, yaratuvchilari qatorida bo'lib kelgan.

Modomiki, gap yoshlar tarbiyasi haqida borar ekan, yana bir milliy tarbiya institutining ahamiyati borasida to'xtalmaslikning imkoniyati yo'q. Oila va mahalla shargona demokratik institut sifatida yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Jamiyatda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda bu institutning ahamiyati katta. Yoshlarni vatanparvar, milliy an'ana va qadriyatlarimizga sodiq qilib tarbiyalashda oila va mahalla borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, tarbiya masalasiga jamiyat va davlat siyosati darajasida qarash zarur. Zero, axloqan barkamol, vatanparvar va keng dunyoqarashli insonlarga jamiyatdagi jarayonlarga ongli munosabatda bo'la oladi. Chunki axloqiy tamoyillarimizga tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda axloqiy barkamollikka muqarrar tanazzuldan asrovchi vosita sifatida qaralmoqda.

Milliy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tobora ortmoqda. Chunki milliy urf-odatlar va qadriyatlar tashqi ta'sirlar kuchayib borayotgan hozirgi vaziyatda eng samarali vosita milliy g'oya va mafkuradir. Bu jarayonda milliy g'oya va mafkuraning eng muhim ijtimoiy funksiyalaridan biri milliy o'zlikni himoya qilish funksiyasi namoyon bo'ladi.

Bugungi globallashuv jarayoni jamiyatning deyarli barcha sohasini qamrab olgan holda taraqqiyotda yangi davrni boshlab berdi. Bu jarayon insoniyatga katta imkoniyatlar berish barobarida misli ko'rilmagan tahdidlarni ham ro'baro' qilmoqda. Bunday tahdidlardan himoyalannish mexanizmlarini ishlab chiqish bugunning eng dolzarb muammolaridan.



